

## ROVOCH O'SIMLIGINING KIMYOVIY TARKIBI VA TIBBIYOTDA QO'LLANILISHI

**Xolmatova Marxabo**

*Farg'ona davlat universiteti*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada rovoch o'simligining morfologiyasi, tarqalish ekologiyasi, agrotexnik tadbirlar, xom-ashyo tayyorlanishi va uning sifati, tibbiyotda va xalq tabobatida qo'llanilishi, kimyoviy tarkibi va o'simlikdan foydalanish to'g'risida tavsiyalar yoritib berilgan. Xozirgi kunda an'anaviy tibbiyot (xalq tabobati) xalq zakovati bilan sugorilgan juda boy va ulkan tajriba bilimlar majmuasidir. U ilmiy (rasmiy) tibbiyotni yangi, samarali dorivor preparatlar bilan boyituvchi bitmas tuganmas manbadir. Xalq tabobatining bu soxadagi qimmat, tutgan orni bebahodir. Buning uchun misol tariqasida hozirgi zamon tibbiyotida qollaniladigan shifobaxsh osimliklarni kopchiligi oz vaqtida xalq tabobati dorivor vositalar xazinasidan olinganligini yoki hozirgi zamon ilmiy tibbiyotining ozi xalq tabobati asosida taraqqiy etganini eslash kifoyadir*

**Kalit so'zlar:** *rovoch o'simligi, kukun, taabletka, torondoshlar oilasi, ko'p yillik o't.*

Hammaga ma'lumki, butun tirik organizm uchun zarur bo'lgan organik birikmalarni anorganik moddalardan faqat o'simliklarga sintez qila oladi. Ana shu o'simliklar to'qimasida sintezlangan organik birikmalar odatda ikki guruhga bo'linadi:

1. Birlamchi sintezlangan moddalar — birlamchi metabolitlar. Bularga oqsillar, uglevodlar, liǒidlar, fermentlar va vitaminlar kiradi. Birlamchi metabolitlar hamma tirik organizmlar uchun juda ham zarur birikmalar bo'lib, ularsiz hayot bo'lmaydi.

2. Ikkilamchi sintezlangan moddalar — ikkilamchi metabolitlar. Bularga o'simliklar to'qimasida sintez bo'ladigan birlamchi metabolitlardan tashqari, qolgan hamma birikmalar kiradi. Ikkilamchi metabolitlar o'simliklar to'qimasida birlamchi sintezlangan moddalardan hamda ular ishtirokida vujudga

keladi. Asosiy dorivor moddalar ikkilamchi sintezlangan birikmalarga — ikkilamchi metabolitlarga kiradi. O'simliklar tarkibidagi dorivor moddalar — biologik faol (aktiv) birikmalar o'simlik o'sish davrida — ontogenezda va turli omillar ta'sirida doimiy o'zgarishda bo'ladi. Ular sintezlanadi,

asta-sekin ko'payadi, ma'lum davrda ko'p miqdorda to'planadi, keyinchalik kamaya boradi va bir vaqt kelib, butunlay yo'qolib ketishi mumkin. Bu o'zgarishlarga faqat o'simlikni o'sish davrigina — ontogenez sababchi bo'lmay, balki tashqi muhit omillari ham katta ta'sir ko'rsatadi.

O'simlikning nomi. Tangut rovochi — *Rheum palmatum L. var tanguticum Maxim.*, torondoshlar — *Polygonaceae* oilasiga kiradi. Ko'p yillik, bo'yi 1,5—2,5 m ga yetadigan o't o'simlik. Ildizpoyasi kalta, ko'p boshli, to'q qo'ng'irrangli, diametri 4— 6 sm bo'lib, undan pastga qarab bir necha yo'g'on, sersuv ildizlar tarqaladi. Bahorda bir nechta uzun (bandi bilan birgalikda

1,5 m gacha uzunlikda), sershira ildizoldi barglar va poyalar o'sib chiqadi. Bargbandi ko'pincha qizil bo'lib, uzunligi 30 sm

ga yetishi mumkin. Barg plastinkasining diametri 75 sm, umumiy ko'rinishi keng tuxumsimon, besh-yetti bo'lakli, yuqori tomoni siyrak kalta tukli, pastki tomoni yoppasiga uzun tuklar bilan qoplangan. Poyasi yo'g'on (diametri 4—5 sm), bo'g'imli, ichi kovak va kam shoxli bo'ladi. Poyadagi barglari maydaroq bo'lib, kalta bandi bilan poyada ketma-ket o'rnashgan. Poyaning barg chiqargan joyida uni o'rab turuvchi yondosh bargchalaridan tuzilgan yupqa pardacha bo'ladi. Gullari mayda, ro'vakka to'plangan. Gulqo'rg'oni oddiy, olti bo'lakka qirqilgan, oq-pushti yoki qizil tojbarlardan iborat. Otaligi 9 ta, onalik tuguni bir xonali, yuqoriga joylashgan. Mevasi — 3 ta qanotga aylangan qovurg'ali, qizil-qo'ng'irrangli pista. Rovoch birinchi yili 5—7 tagacha ildizoldi to'pbarglar chiqaradi. Ba'zi turlari ikkinchi yili, ko'pchilik turlari esa uchinchi yili poya chiqaradi. Iyun oyida gullaydi, mevasi iyulda yetiladi.

Geografik tarqalishi. Tangut rovochining vatani Shimolig'arbiy Xitoy va Shimoliy Tibetning tog'li tumanlaridagi o'rmonlar. Rovoch plantatsiyasi Moskva, Voronej, Novosibirsk viloyatlarida hamda Belarus va Ukrainada tashkil etilgan.

Mahsulot tayyorlash. Rovoch o'simligi 3—4 yoshga to'lgandan so'ng kuz oylarida (urug'i yig'ib olingandan keyin) yerostki qismi kovlab olinadi va suv bilan yuvib tuproqdan tozalanadi. Chirigan ildizpoya va yerustki poya qoldiqlari pichoq bilan kesib tashlanadi. So'ngra ildiz (ildizpoya 3—4 yoshlik o'simlikda kichkina bo'ladi) 10—15 sm dan qilib, yo'g'on ildizlar va ildizpoya esa uzunasiga ham kesib bo'linadi. Kesilgan ildiz va ildizpoyalar 2—3 kun yoyib so'ltiladi va 60°C da quritiladi.

Mahsulotning tashqi ko'rinishi. Tayyor mahsulot uzunligi 10—25 sm, yo'g'onligi 3 sm bo'lgan silindrsimon ildiz va ildizpoyadan tashkil topgan (mahsulotda ildizpoya kam bo'ladi), ildiz bo'laklari tashqi tomondan to'q qo'ng'ir po'kak bilan qoplangan. Ichki tomoni sariq-pushti rangga bo'yalgan. Ho'l ildizining ichi oq, unda to'q sarg'ish dog'lar va yo'llar bor.

Mahsulot o'ziga xos hid va achchiq burishtiruvchi mazaga ega.

Kimyoviy tarkibi. Mahsulot tarkibida ikki xil gruppaga kiruvchi birikmalar: 6,0—12% tanoglikozidlar (oshlovchi moddalar — taninlar) hamda 3,4—6% antratsen hosilalari bo'ladi. XI DF ga ko'ra, mahsulot tarkibida antratsen hosilalarining umumiy miqdori 2% dan kam bo'lmasligi kerak.

Ishlatilishi. Rovoch preparatlari surunkali me'da-ichak kasalliklarida ichni yumshatish, ichak atoniyasida va gaz to'planib qolganda ishlatiladi. Bu preparatlar kam dozada (0,05—0,2 g) qabul qilinsa, ichni qotiradi (asosan, tanoglikozidlar ta'siri) va aksincha, ko'p dozada (0,5—2,0 g) qabul qilinganda ichni yumshatadi (asosan, antratsen unumlarini ta'siri).

Dorivor preparatlari. Rovoch ildizi kukun va tabletka holida ishlatiladi. Rovoch ildizidan yana qaynatma va quruq ekstrakt (suvli-spirтли ajratma) tayyorlanadi.

Xulosa: Xulosa qilib aytganda rovoch o'simligi juda ham dorivor o'simlik hisoblanadi. Inson va hayvonlar organizmida ro'y beradigan turli kasalliklarni

davolashda ishlatiladigan dori-darmonlar ichida shifobaxsh o'simliklardan tayyorlanayotgan dorilar salmoqli o'rintutadi. Juda ko'pchilik dorivor o'simliklar dorixo-nalarda sotilmaydi, balki dori-darmonlar ishlab chiqarishdagi asosiy xom ashyo manbai xisoblanadi. Biz dori-darmonlardan foydalanayotganimizda, ko'pincha ularni shifobaxsh o'simliklardan tayyorlanayotganini xayolimizga ham keltirmaymiz. Masalan: kardiovalen — yurak kasalliklarini davolashda qo'llaniladigan sifatli dorilardan bo'lib, u do'lana, asarun (valeriana), sariqqul (adonis) va boshqa bir qancha o'simlik turlaridan tayyorlanadigan murakkab birikmadir. Hozirgi vaqtda tibbiyotda ishlatiladigan 900 dan ortiqroq xil dori-darmonlarning uchdan bir qismi dorivor o'simliklarning mahsuli hisoblanadi. Yurak kasalliklarini davolashda foydalaniladigan dorilarning 77%, jigar va oshqozon-ichak yo'llarida uchraydigan kasalliklarni davolaydigan dorilarning 74%, bachadon kasalliklariga qarshi ishlatiladigan dorilarning 80% shifobaxsh o'simliklardan tayyorlangandir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:**

1. Karimov V., Shomahmudov A. Xalq tabobati va zamonaviy ilmi tibda qo'llaniladigan shifobaxsh o'simliklar. —Toshkent, 1993.
2. Kursanov A. I. vaboshqalar. Botanika 2-tom –Toshkent, 1963.
3. Mustafoyev.S.M. Botanika –Toshkent, 2002.
4. Nabiyeu M. Botanika atlas-lug'ati. —Toshkent, 1969.
5. Nabiev M. LechebnyedaryChatkala –Toshkent, 2004.
6. Prator.O`P, Nabiyeu.M.M. O`zbekiston yuksak o`simliklarning zamonaviy tizimi –Toshkent, 2007.